DORIVOR O'SIMLIKLAR SAVDOSIDA QIYMAT ZANJIRI TAHLILI: IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH OMILLARI.....	893
Maftuna Ermatova Arslonbek qizi	
O'ZBEKISTON VA TURKMANISTON O'RTASIDAGI SAVDO AYLANMASI TAHLILI	899
Voxidova Mehri Xasanovna	
GLOBAL KOMPANIYALARDA RAQAMLI MENEJMENTNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	905
Axmedov Sardor Shuxrat o'g'li	
IQLIM O'ZGARISHLARI VA GLOBALLASHUV SHAROITIDA EKOLOGIK-HUQUQIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH.....	912
Jumanazar Xolmuminov	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING JAHON TAJRIBASI	916
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDLARNING INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	921
Rahmatullayev Bobir Chorshamiyevich	



FINANCING WATER RESILIENCE: A FEASIBILITY ANALYSIS OF SOVEREIGN BLUE BOND ISSUANCE IN UZBEKISTAN.....	926
Yakubov Jakhongir	
УКРЕПЛЕНИЕ ПАРТНЁРСТВО И СОЗДАНИЕ ЕДИНСТВЕННОГО ЭНЕРГОРЫНКА В УЗБЕКИСТАНЕ	929
Каримова Нуржахон Олим кизи	
ИННОВАЦИОННАЯ ЗРЕЛОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ФАКТОР РОСТА ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ КОМПЛЕКСНОЙ МОДЕЛИ	935
Алиева Эльнара Аметовна, Табаков Евгений Сергеевич	
"BUDJET JARAYONLARIDA XAVFLARNI ANIQLASH VA BAHOLASH: ICHKI AUDIT YONDASHUVLARI"	941
Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna, Nishonxo'djaev Bekzod Baxodir o'g'li	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA DAVLATNING ROLI	947
Raximov Baxromjon Ibroximovich	
O'ZBEKISTONDA SUT SEKTORINING QIYMAT ZANJIRINI SANOATLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	951
Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBIDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYA TIZIMLARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	955
Hamroyeva Zuhra Amiral qizi	
АНАЛИЗ И ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В АЗЕРБАЙДЖАНЕ	961
Ариф Мустафаев	
ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА ИЗМЕНЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ.....	968
Ишонкулова Феруза Асатовна	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION HUQUQIY SIYOSATIDA GLOBAL REYTINGLARNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	974
Gavhar Bekmurodova Adham qizi	
XALQARO MOLIYA BOZORIDA KREDIT RISKINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	981
Ochilova Xusniya Olim qizi, Yuldasheva Umida Asanaliyevna	
JAHONDA BRONLASH TIZIMLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARINING EVOLYUTSIYASI.....	987
Ismatillaeva Sitara Sayfidin qizi	
MILLIY IQTISODIYOT INNOVATSION SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA JAHON TAJRIBALARI.....	994
Samadqulov Muhammadjon Islom o'g'li	
HUDUDIIY RIVOJLANISHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING AHOLI DAROMADLAR DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	998
Olimjon Fattoyev G'ayrat o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY SHAROITLARDI RAQOBATBARDOSHLIGI: NAZARIY JIHATLARI VA AMALIY BOSHQARUV STRATEGIYALARI	1002
Adizov Bobir Baxtiyorovich	
ZAMONAVIY SHAROITDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI RISKLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1005
Sirojiddinov Kamoliddin Ikromiddinovich, Nasritdinov Bekzod Xusnutdinovich	



ZAMONAVIY SHAROITDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI RISKLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sirojiddinov Kamoliddin Ikromiddinovich

Namangan davlat universiteti

iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Email: ksi0209178@gmail.com

ORCID: 0000-0002-7851-5990

Nasritdinov Bekzod Xusnutdinovich

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Email: nasriddinov_b@mail.ru

ORCID: 0009-0008-8095-8345

Annotatsiya. Ushbu maqola tadbirkorlik subyektlari, xususan kichik korxonalar faoliyatida risklarni boshqarishning nazariy va amaliy masalalariga bag'ishlangan. Tadqiqotda risk tushunchasining evolyutsiyasi, uning klassik va zamonaviy talqinlari, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi risk omillari tahlil qilingan. Maqolada muallif tomonidan ishlab chiqilgan risk omillarining yangi tasnifi taklif etilib, unda risklar turli xil guruhlariga bo'lingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik korxonalarda risklarni boshqarishning asosiy muammolari resurslarning cheklanganligi, ma'lumotlar yetishmasligi va metodologik qiyinchiliklardan iborat. Maqolada kichik korxonalar uchun mos risklarni boshqarishning mantiqiy zanjiri hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik risklari, risk omillari tasnifi, risklarni boshqarish, kichik korxonalar, riskni baholash, noaniqlik sharoiti, ichki va tashqi risklar, risklarni prognozlash, moliyaviy risklar, tadbirkorlik subyektlari.

Abstract. This article is devoted to theoretical and practical issues of risk management in the activities of business entities, in particular small enterprises. The study analyzes the evolution of the concept of risk, its classical and modern interpretations, as well as internal and external risk factors affecting entrepreneurial activity. The article proposes a new classification of risk factors developed by the author, in which risks are divided into different groups. The results of the study show that the main problems of risk management in small enterprises are resource constraints, lack of information and methodological difficulties. The article develops a logical chain of risk management appropriate for small enterprises and practical recommendations.

Key words: business risks, classification of risk factors, risk management, small businesses, risk assessment, uncertainty conditions, internal and external risks, risk forecasting, financial risks, business entities.

Аннотация. Статья посвящена теоретическим и практическим вопросам управления рисками в деятельности субъектов предпринимательства, в частности малых предприятий. В статье анализируется эволюция понятия риска, его классические и современные трактовки, а также внутренние и внешние факторы риска, влияющие на предпринимательскую деятельность. В статье предлагается разработанная автором новая классификация факторов риска, в которой риски разделены на различные группы. Результаты исследования показывают, что основными проблемами управления рисками на малых предприятиях являются ресурсные ограничения, недостаток информации и методические трудности. В статье разработана логическая цепочка управления рисками, приемлемая для малых предприятий, и даны практические рекомендации.

Ключевые слова: предпринимательские риски, классификация факторов риска, управление рисками, малый бизнес, оценка рисков, условия неопределенности, внутренние и внешние риски, прогнозирование рисков, финансовые риски, субъекты хозяйствования.



KIRISH

Tadbirkorlik subyektlari faoliyat sohalari doimo ma'lum bir noaniqlik darajasi bilan uzviy aloqada ro'y beradi. Noaniqlik darajasining yuqori yoki past sharoitlarida faoliyat yuritish pirovard natijada korxonada daromad yoki zarar paydo bo'lishiga olib keladi. Kutilmagan holatda yuzaga keladigan u yoki bu ehtimoliy zararlarni baholash yoki o'lchash uchun, eng avvalo, tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq zararlar turlarini aniqlab olish zarur bo'ladi. Bunda, albatta, har bir zarar turini miqdoriy baholash va ularni yagona qolipga tushira olish zaruriyati yuzaga keladi.

Zararlarni bashorat (prognoz) qilish jarayonida ularni hisoblashdan avval bir muhim vaziyatga alohida ahamiyat qaratish lozim. Ya'ni tadbirkorlik faoliyatining borishiga va natijalariga ta'sir etuvchi jarayonlarning ehtimoliy rivojlanishi nafaqat katta miqdordagi resurslarning yo'qotilishiga olib kelishi, balki yakuniy moliyaviy natijani ham sezilarli darajada kamaytirib yuborishi mumkin bo'ladi.

Bundan tashqari, tadbirkorlik faoliyatida risklarga yetarlicha baho bermaslik deyarli har doim noxush vaziyatlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Bu esa keyinchalik moddiy va nomoddiy aktivlarning, jumladan, korxona obro'si (imij), goodwill va shu kabi aktivlarning qadrsizlanishiga sabab bo'ladi. Shu bois tadbirkorlik subyektlarida iqtisodiy faoliyat jarayonida yuzaga keluvchi risklar, ularning asosiy sabablarini aniqlash hamda risklar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy zararlar masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy fanlarda riskni tadqiq etishga ikki yondashuv mavjud. Klassik nazariya vakillari (J.S. Mill, N.U. Senior va boshqalar) tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlarni ish haqi va tavakkalchilik uchun to'lovdan tashkil topgan pul shakli sifatida ko'rib chiqadilar[1]. Bu yerda risk zarar bilan tenglashtiriladi. Risk nazariyasining yana bir vakili J.M. Keynes kutilayotgan daromadga nisbatan olingan daromad og'ishidagi farqlarni qoplash uchun "xarajatlar riski" tushunchasini kiritish zarurligini asoslab bergan[2]. U iqtisodiy faoliyatda hisobga olinishi lozim bo'lgan uch asosiy xatar turini, ya'ni tadbirkorlik xatari, kredit xatari va bozor xatarini ajratib ko'rsatgan.

Pol Keyne o'zining "iqtisodiy fikrlash tarzi" asarida "foyda noaniqlik tufayli yuzaga keladi, ... agarda foyda olishga taalluqli bo'lgan barcha narsa barchaga ma'lum bo'lganida, ... foyda olishning barcha imkoniyatlaridan to'liq foydalanilgan va natijada foyda barcha yerda nolga teng bo'lgan bo'lar edi", deb ta'kidlaydi[3]. Xatarni nazariy jihatdan tadqiq etishda "noaniqlik" va "xatar" tushunchalari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish muhim o'rin tutadi. Amerikalik iqtisodchi F. Nayt o'z ishida "noaniqlik" va "xatar" tushunchalarini bir-biridan tubdan farq qiladi, deb yozadi[4]. U xatarni miqdoriy baholash mumkin, noaniqlikni esa miqdoriy baholashning imkoni yo'q, deb hisoblaydi. Uning fikricha, xatar bu miqdoriy baholanadigan noaniqlikdir.

Xatar tushunchasi xorijiy adabiyotlarda, xususan, ingliz va rus tillarida "risk" (risk) deb talqin qilinadi. Ayrim mutaxassislar "risk" termini grekcha "ridsikon", "ridsa", ya'ni tik qoya, qoya tosh mazmunini ifoda etuvchi so'zdan kelib chiqqan deb hisoblasalar, boshqa bir olimlar uning tub mazmuni ispancha (risco – tik qoya), italyancha (risicare – qoyalar orasida chap berib suzmoq, rischio – xavf, xatar, halokatga yo'liqish), fransuzcha (risque – xatarli, shubhali) so'zlardan paydo bo'lganligi yoki lotincha (rescum – oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan, xavf yoki vayron etuvchi) so'zidan kelib chiqqanligini ta'kidlaydilar.

Webster lug'atida (Webster's Encyclopedic Unabridged Dictionary) "risk" so'zi "zarar yoki yo'qotish ehtimoli, xavf-xatar", ya'ni biror-bir ko'ngilsiz hodisaning yuzaga kelish ehtimolini anglatadi. S.I. Ojegov lug'atida esa "risk" so'zi "xavf-xatar ehtimoli yoki muvaffaqiyatli natija umidida omadga tayanib harakat qilmoq" deb ta'riflanadi[5]. O'zbek tilining izohli lug'atida "xatar" so'zi xavf, tahlika, vahima, xavotir mazmunida ifoda etilib, "biror baxtsizlikka, falokatga olib kelishi mumkin bo'lgan sharoit" sifatida talqin etilgan.

Ma'lumki, tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy faoliyatiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, alohida olib qaralgan omilning ta'siri boshqa omillar ta'sirida kuchayishi yoki pasayishi ham mumkin. Shu bois quyi, o'rta va yuqori oraliqlarda baholash asosida risklarning mumkin bo'lgan eng kam zararli ta'sir darajasini aniqlash orqali ushbu risk ta'sirini to'liq hisobga olish imkoniyati paydo bo'ladi. Amaliyotda ushbu maqsadda Laykert shkalasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir[6].

Bektemirov tomonidan xizmat ko'rsatish subyektlarining tadbirkorlik faoliyatida investitsion loyihalar riskini baholashda xizmat ko'rsatish turlarining riskka moyillik darajalarini guruhlash taklif qilingan bo'lib, bu baholash sifatini oshirishga hamda investitsion resurslardan optimal foydalanish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiladi[7]. Qambarovning ilmiy tadqiqotlarida qurilish materiallari sanoati korxonalariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ichki va tashqi risklarni ekspert baholashning reyting tizimini qo'llash orqali risk omillarining 15-20 % ga kamayishiga, shuningdek, ishlab chiqarishdagi yaroqsiz (brak va defekt) mahsulotlar hamda uzilishlarni qisqartirish hisobiga material ko'rinishidagi yo'qotishlarning 9-10 % ga kamayishiga erishish mumkinligi asoslab berilgan[8].




TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadbirkorlik subyektlarida risklarni boshqarish masalasining nazariy jihatlarini ko'rib chiqish jarayonida monografik usul qo'llanilgan. Tadqiqotning asosi axborotni qayta ishlashning statistik usullaridan foydalangan holda tizimli tahlilni amalga oshirishga qaratilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Risk ko'lamini va ta'sir doirasi tadbirkorlik faoliyatining strategiyasi hamda o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra aniqlanadi. Ushbu bosqich yakunidan so'ng umumiy risk bazasi shakllantiriladi va eng ehtimoli yuqori bo'lgan risklar aniqlanadi. Risklarni baholash ularning aniq maqsadi va ehtimollikka ta'siri asosida amalga oshiriladi. Ular ekspert baholash, miqdoriy baholash yoki amalga oshirish darajasi bilan ifodalanishi mumkin. Risk omillari va ularning oqibatlarini tahlil qilish baholash jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Har bir riskning korxonaning strategik maqsadlariga ta'siri hamda risk miqyosining oshishiga ko'ra uning ustuvorligi belgilanadi.

Risklarni identifikatsiya qilish jarayoni korxonalar faoliyatini amalga oshirish natijasida yuzaga keladigan xatarli vaziyatlarning sabablari va manbalarini aniqlashdan iborat. Identifikatsiya jarayonida risk omillarini tahlil qilish bosqichi alohida muhim ahamiyatga ega. Tadbirkorlik faoliyatidagi xatarlarga ta'sir etuvchi omillar bir qator iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan o'rganilgan. Aksariyat mualliflar risklarning paydo bo'lishini tashqi omillar, ya'ni boshqaruv tizimi bevosita ta'sir eta olmaydigan omillar hamda ichki omillar, ya'ni korxona boshqaruv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan har bir biznes jarayonida yuzaga keladigan omillar bilan izohlaydilar (1-rasm).



1-rasm. Tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir etuvchi risk omillari¹

Risklarni yuzaga keltiruvchi tashqi omillar faqat kuzatilishi mumkin bo'lib, korxona ushbu omillarning o'zgarishiga bevosita ta'sir qila olmaydi. Ularning barchasi bitta subyekt faoliyatiga bog'liq emas. Ichki omillarni esa nafaqat tahlil qilish zarur, balki korxona ushbu omillar guruhi doirasida ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ham ega. Risklarni tahlil qilish va ularni boshqarishning mos modellarini ishlab chiqish asosida baholash murakkab hamda ko'p vaqt talab etadigan jarayon hisoblanadi. Bu, bir tomondan, risk omillari va ularning dinamikasining nobarqarorligi bilan, ikkinchi tomondan esa ishlab chiqarish faoliyati natijalarini shakllantirish jarayonining murakkabligi bilan tavsiflanadi.

Shu sababli riskni baholash modellarini ishlab chiqish va asoslash risk omillarining sabablari hamda ular haqidagi ma'lumotlarning to'liq tavsifini, shuningdek, tadqiqot maqsadini puxta tahlil qilishni talab etadi. Riskni baholash ko'rsatkichlari aniqlanayotganda asosiy e'tibor daromadlilik va yo'qotishlarga qaratilishi muhim. Risk baholanayotganda aynan shu jihat me'yorlardan biriga aylanadi. Bu holat amaliyotda risk va daromadlilik o'rtasida to'g'ri korrelyatsion bog'liqlik mavjudligi bilan izohlanadi. Odatda daromad olish imkoniyati ortib borgani sari risk ham oshib boradi yoki daromad risk bilan to'g'ri proporsional ravishda o'sadi.

Risklar kelajakda korxonaning rivojlanishi uchun yangi yo'nalishlarni tanlash zarurati bilan bir qatorda, noaniqlik muhitida prognozlash masalasining dolzarbligini ham belgilab beradi. Shu bilan birga, korxonada

1 Muallif ishlanmasi



prognozlash uchun asosiy to'siq prognozlash usullarining nisbatan murakkabligi va ishonchli ma'lumotlarning yetishmasligi bilan bog'liqdir. Prognozlash jarayonida foydalaniladigan usullar qanchalik oddiy bo'lsa, ularning aniqlik darajasi shunchalik ishonchli deb hisoblanmaydi. Biroq kichik korxonalarning amaliy faoliyatida aynan shunday usullar muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular aniqlik darajasi yuqori bo'lmasa-da, qaror qabul qilishning muhim yo'nalishlarini belgilab beradi.

Korxona faoliyatida risklarni boshqarishda ikki turdagi strategik xatolar yuzaga kelishi mumkin. Birinchisi, risklarni ortiqcha baholash va natijada haddan tashqari ehtiyotkor harakatlanish usulini tanlash bo'lib, bu kichik korxonada foydaning yetishmasligiga va rivojlanish sur'atlarining sekinlashishiga olib keladi. Ikkinchisi esa risklarni yetarli darajada baholamaslik natijasida zarar ko'rish hamda kichik korxonaning bankrot bo'lish ehtimolining oshishidir.

Shuni ham ta'kidlash zarurki, amaliyotda kichik korxonalar risklar bilan bog'liq ko'plab holatlarda bir-biridan andoza oladilar va mavjud tajribalarga tayanib ish yuritadilar. Bu yondashuv, asosan, o'rindir, ayniqsa kichik korxonalarning moliyaviy va mehnat resurslari o'zlari uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni olish va mustaqil qarorlar qabul qilish uchun yetarli emasligini hisobga olsak. Bunday hollarda hamkor va raqobatchi korxonalarning harakatlari, agar ushbu harakatlar haqida ma'lumot mavjud bo'lsa, ko'pincha qarorlar qabul qilishda muayyan ko'rsatkich vazifasini bajaradi. Shu munosabat bilan kichik korxonalarni alohida subyekt sifatida emas, balki korxonalar hamjamiyati yoki guruhining a'zolari sifatida ko'rib chiqilganda, risklarni boshqarishda qo'shimcha xatolar yuzaga kelishi mumkinmi, degan savolni tahlil qilish zarur bo'ladi.

Risk omillarining mavjud turlarini tahlil qilib, har bir omilning umumiy tizimdagi o'rnini aniq belgilash imkonini beradigan ilmiy asoslangan tasnifni ishlab chiqishga harakat qilindi. Bu tadbirkorlik faoliyatida risklarni baholashning tegishli usullarini samarali qo'llash uchun imkoniyatlar yaratadi. Risk tashqi muhitning noaniqligi tufayli obyektiv asosga ega bo'lishi, tadbirkorning qaror qabul qilishi natijasida esa subyektiv xususiyat kasb etishi sababli, tadbirkorlikdagi yutuqlar va muvaffaqiyatsizliklar bir qator omillarning o'zaro ta'siri natijasi sifatida ko'rib chiqilishi lozim.

Shuni ta'kidlash joizki, risk sabablari uning amalga oshishiga olib keladi, risk omillari esa uning amalga oshish ehtimoli va oqibatlarini orqali iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir ko'rsatadi. Bizning fikrimizcha, tadbirkorlik tuzilmalari asosiy imkoniyat va resurslarni, avvalo, ichki muhit risklarini boshqarishga yo'naltirishi zarur.

Tadbirkorlik tuzilmalari risklarni boshqarishda tushunchalarni aniq anglash va ularni qo'llashning muvofiqligi, bizning fikrimizcha, mos vositalarni tanlash va qo'llashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan kichik korxonada risklarni boshqarish sohasidagi tushunchalarni qo'llashning mantiqiy zanjiri quyidagicha shakllanishi lozim (1-jadval).

1-jadval. Tadbirkorlik faoliyatini risklarni belgilovchi omillar tasnifi²

Tasniflash belgisi	Risk omili
Vujudga kelish vaqti bo'yicha	1. Retrospektiv 2. Joriy 3. Istiqbolli
STEP omillari	1. Sotsiologik 2. Texnologik 3. Iqtisodiy 4. Boshqalar
Ta'sir darajasi bo'yicha risk miqdori	1. Asosiy 2. Asosiy bo'lmagan
Vujudga kelgan joyiga ko'ra	1. Tashqi a) bevosita b) bilvosita
	2. Ichki a) obyektiv b) subyektiv
Vujudga kelish sohasi	1. Texnik-xavfsizlik 2. Ishlab chiqarish 3. Moliyaviy 4. Bozor va marketing
Tabiati bo'yicha	1. Texnogen 2. Tabiiy 3. Aralash

2 Muallif ishlanmasi



Vujudga kelish darajasi bo'yicha	1. Makro daraja 2. Mezo daraja 3. Mikro daraja
Aniqlik darajasi bo'yicha	1. Aniq 2. Bashorat qilinadigan 3. Oldindan aytib bo'lmaydi
Vujudga kelish bosqichlari bo'yicha	1. Loyiha 2. Rejalashtirilgan 3. Haqiqiy
Asoslanganlik darajasi bo'yicha	1. Asoslangan 2. Asoslanmagan
Ehtimoliy yo'qotishlar hajmi bo'yicha	1. Ruxsat etilgan 2. Kritik 3. Halokatli
Oqibatlari ko'lamini bo'yicha	1. Global 2. Mintaqaviy 3. Mahalliy
Boshqarish darajasi bo'yicha	1. Boshqariladigan 2. Boshqarish murakkab 3. Boshqarib bo'lmaydigan

• Risklar amalga oshirishidan oldin ularni har tomonlama baholash maqsadida amalga oshiriladigan choralar, jumladan risklarning sifat xususiyatlari, ularning sabablari va omillari, shuningdek, miqdoriy xususiyatlari, ya'ni yuzaga kelish ehtimoli hamda oqibatlar miqdorini prognoz qilish, oqibatlarni qoplash uchun moliyaviy resurslar manbalarini aniqlashtirishni o'z ichiga olgan prognozlash.

• Risklarni oldini olish yoki bu imkoniyatsiz bo'lgan taqdirda ularning ro'y berish ehtimoli va oqibatlarini kamaytirish maqsadida amalga oshiriladigan choralar, ya'ni oldini olish choralari.

• Risklar ro'y bergandan keyin amalga oshiriladigan choralar, jumladan risklarning haqiqiy sabablari va omillarini baholash, risklarning namoyon bo'lishining real oqibatlari miqdorini aniqlash, shuningdek, ushbu oqibatlarni qoplash uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarning haqiqiy miqdori va manbalarini belgilash.

Ushbu mantiqiy zanjirning barcha elementlari katta amaliy ahamiyatga ega. Biroq kichik korxonada risklarni boshqarishda quyidagi ko'rsatkich turlari eng muhim hisoblanadi: mumkin bo'lgan riskli hodisalar variantlari ro'yxati, shuningdek, ushbu riskli hodisalarning ro'y berish ehtimolligi va kutilayotgan oqibatlari. Kichik korxonalarning amaliy faoliyatida ushbu ikki turdagi ko'rsatkichlarni aniqlash muayyan qiyinchiliklarga olib keladi. Ammo eng murakkab jihat barcha mumkin bo'lgan riskli hodisalar variantlarini aniqlash emas, balki aynan ushbu riskli hodisalarning ro'y berish ehtimollarini baholash hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshqa barcha sharoitlar teng bo'lgan holda, risklarni boshqarish uchun moliyaviy va mehnat resurslarining yetishmasligi muammosi kichik korxonalarda yirik korxonalarga nisbatan ancha keskin namoyon bo'ladi. Tadbirkorlik subyektlarida risklarni boshqarishdagi asosiy murakkablik mavjud usullarning nisbatan murakkabligi, ma'lumotlar assimetriyasi hamda ishonchli axborot yetishmasligining kuchli ta'siri bilan bog'liq. Shu sababli tadbirkorlik subyektlarida risklarni boshqarish usullari, metodlari va umuman yondashuvlari kam budjetli hamda soddaligi bilan ajralib turuvchi mezonlar asosida tanlanishi lozim.

Tadbirkorlik faoliyati va risklar o'rtasidagi chambarchas bog'liqlik korxona muvaffaqiyati va barqaror rivojlanishini ta'minlashda risklarni o'z vaqtida aniqlash, baholash va samarali boshqarishning muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, risklarni boshqarish nafaqat mumkin bo'lgan yo'qotishlarni minimallashtirish vositasi, balki korxona rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlarni ochib beruvchi omil sifatida ham namoyon bo'ladi.

Tadbirkorlik subyektlari, ayniqsa kichik korxonalar, risklarni boshqarish jarayonida quyidagi asosiy muammolarga duch kelmoqda:



1. Resurslar cheklanganligi, ya'ni moliyaviy va kadrlar resurslarining yetishmasligi.
2. Ma'lumotlar yetishmasligi, ya'ni ishonchli axborot bazasining mavjud emasligi.
3. Metodologik qiyinchiliklar, ya'ni mavjud riskni baholash usullarining murakkabligi.

Shu bilan birga, ishlab chiqilgan risk omillari tasnifi (1-jadval) hamda ularni boshqarishning mantiqiy zanjiri korxonalarga risklarni tizimli tahlil qilish va ularga nisbatan izchil yondashuvni shakllantirishda amaliy yordam beradi.

Tadbirkorlik subyektlarida risklarni boshqarish samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo'nalishlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- soddalashtirilgan metodologiyalar, ya'ni kichik korxonalar imkoniyatlariga mos keladigan riskni baholash usullarini joriy etish;
- ichki risklarni boshqarish, ya'ni korxona tomonidan nazorat qilinadigan ichki omillarga ustuvor ahamiyat berish;
- tajriba almashish, ya'ni turli korxonalar o'rtasida risklarni boshqarish bo'yicha amaliy tajribalarni almashish mexanizmlarini yaratish.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy bozorda raqobatbardosh ustunlikni saqlab qolish va barqaror rivojlanishni ta'minlash risklarni faol boshqarish sifati va samaradorligiga bevosita bog'liq. Risklarni boshqarish faqat "zararni kamaytirish" vositasi sifatida emas, balki strategik rivojlanish va raqobatdosh ustunlikni shakllantirishning muhim instrumenti sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Шевелёв А.Е., Шевелева Е.В. Риски в бухгалтерском учете: Учебное пособие. – 2-е изд. перераб. и доп. – М.: КНОРУС, 2009. – С. 19.
2. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. с англ. – М.: Гос. изд. Иностранной литературы, 1948. – С. 136-137.
3. Хейне П. Экономический образ мышления / Пер. с англ. – М.: Издательство "Каталакия", 1997. – С. 348
4. Найт Ф. Х. Риск, неопределенность и прибыль / Пер. с англ. – М.: Дело, 2003. – С. 30-31
5. Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка/ С.И.Ожегов, Шведова Н.Ю. – М.: Мир и Образование, Оникс, 2011. – С. 542.
6. Ibodov K.M. (2022) Marketing tadqiqotlari. O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA" nashriyoti, 260 b. 172 bet.
7. Bektemirov A.A. (2022). Tadbirkorlik risklarini baholash va pasaytirish yo'llari (xizmat ko'rsatish korxonalari misolida). Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, TDIU. Toshkent, 2023 y.-56 b.
8. Kambarov J.X. (2023). Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarida riskni boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati, TDIU. Toshkent, 2023 y.-82 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
